



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 02 | pp. 16-25 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY RESURLARNI SAMARALI BOSHQARISH MEXANIZMI



Mavlyanova Yulduzxon Turg'unovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy resurslarni shakllantirish va boshqarish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida "Dori-darmon" aksiyadorlik jamiyatining aktiv va passivlarining dinamikasi, moliyaviy resurslar tarkibi hamda ularning moliyaviy barqarorlikka ta'siri tahlil qilindi. Shuningdek, moliyaviy resurslarni samarali boshqarishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilib, kapital tuzilmasini optimallashtirish hamda moliyaviy risklarni kamaytirish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: moliyaviy resurslar, aksiyadorlik jamiyati, aktivlar va passivlar, moliyaviy barqarorlik, kapital tuzilmasi, moliyaviy instrumentlar, korporativ boshqaruv.

Аннотация: В данной научной статье исследуются вопросы формирования и управления финансовыми ресурсами в акционерных обществах. В ходе исследования проведён анализ динамики активов и пассивов акционерного общества «Дори-дармон», структуры финансовых ресурсов и их влияния на финансовую устойчивость общества. Кроме того, рассмотрены теоретические и практические аспекты эффективного управления финансовыми ресурсами, а также разработаны научные выводы, направленные на оптимизацию структуры капитала и снижение финансовых рисков.

Ключевые слова: финансовые ресурсы, акционерное общество, активы и пассивы, финансовая устойчивость, структура капитала, финансовые инструменты, корпоративное управление.

Annotation: This scientific article examines the issues of formation and management of financial resources in joint-stock companies. During the study, the dynamics of assets and liabilities of "Dori-darmon" joint-stock company, the structure of financial resources, and their impact on the company's financial stability were analyzed. In addition, theoretical and practical aspects of effective financial resource management are considered, and scientific conclusions aimed at optimizing the capital structure and reducing financial risks are developed.

Key words: financial resources, joint-stock company, assets and liabilities, financial stability, capital structure, financial instruments, corporate governance.

Kirish

Aksiyadorlik jamiyatlarining kapital bozoridan moliyaviy resurslarni jalb qilish mexanizmini takomillashtirish masalalari zamonaviy bozor iqtisodiyotida alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Kapital bozorining rivojlanganligi korxonalar uchun uzoq muddatli, nisbatan arzon va diversifikatsiyalashgan moliyalashtirish manbalarini shakllantirish, korporativ boshqaruvni mustahkamlash hamda investitsion faollikni kengaytirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, aksiyadorlik jamiyatlarida mavjud moliyaviy instrumentlardan foydalanish samaradorligini oshirish, ularning bozor infratuzilmasi bilan integratsiyasini chuqurlashtirish va investorlar uchun jozibadorligini oshirishga qaratilgan uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqish hozirgi davrning eng dolzarb ilmiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarining kapital bozoridan moliyaviy resurslarni jalb qilish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan yondashuvlarning zarurligi iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hamda korporativ sektorda investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan davlat siyosatining muvaffaqiyati bilan uzviy bog'liqdir. Kapital bozorining institutsional rivoji, undagi moliyaviy instrumentlar turlarining kengayishi va aksiyadorlik jamiyatlarining ushbu bozor bilan integratsiyalashuv darajasining oshishi mamlakatning umumiy investitsion muhitini yaxshilashda strategik ahamiyat kasb etadi.

Yangi O'zbekiston iqtisodiyotining institutsional asoslarini rivojlantirishda yirik aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini isloh qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy faoliyatini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va ularning kapital bozorida ishtirokini kengaytirish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Iqtisodiyot tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan yirik aksiyadorlik jamiyatlari nafaqat makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, balki aholi bandligini ta'minlash kabi ijtimoiy vazifalarni bajarishda ham muhim o'rin tutadi. So'nggi yillardagi tendensiyalar tahlili shuni ko'rsatadiki, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini har tomonlama rivojlantirish, ularning korporativ boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, yirik korxonalarni transformatsiya qilish, davlat ulushini bosqichma-bosqich qisqartirish hamda xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish orqali kapital bozoridan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi" [1]da ham kapital harakatini bosqichma-bosqich erkinlashtirish, yirik korxonalar va ulardagi davlat ulushlarini, jumladan fond birjasi orqali xususiylashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Mazkur islohotlar aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan kapital bozoridan moliyaviy resurslarni jalb qilishning uslubiy asoslarini yanada takomillashtirish, ularning investitsion jozibadorligini oshirish hamda bozor tamoyillariga asoslangan rivojlanish mexanizmlarini shakllantirish uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Albatta, bunday sharoitda aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy ta'minotni boshqarishning nazariy asoslarini keng tadqiq etish, moliyaviy resurslar tarkibini shakllantirishda zamonaviy moliyaviy instrumentlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda moliyaviy samaradorlikni oshirishga qaratilgan mexanizmni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etish bilan birga mazkur yo'nalishda tadqiqotlarni olib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga doir adabiyotlar sharhi

Xalqaro ilmiy amaliyot tajribalaridan ma'lumki, kompaniyalar moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim shartlaridan biri moliyaviy ta'minot manbalarini samarali boshqarish va ulardan foydalanishga doir optimal qarorlar qabul qilish hisoblanadi.

York universiteti professorali tomonidan bildirilgan fikrlarga ko'ra, moliyaviy resurslar - bu kompaniya faoliyati va investitsiyalarini moliyalashtiradigan mablag'lar va aktivlar. Oddiy so'z bilan aytganda, moliyaviy resurslar - bu biznes faoliyatini ta'minlaydigan pullar bo'lib, moliyaviy resurslarni jalb qilish va undan foydalanishning bir necha usullari va yo'llari mavjud bo'ladi. Aynan ushbu yo'llar va usullarning majmui kompaniya moliyaviy ta'minot manbaini tashkil qiladi [2]. Aksariyat iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar amaliyotini tahlil qilar ekanmiz kompaniya moliyaviy resurslari o'nlab yillar davomida muhokama qilinadigan dolzarb masala bo'lib kelgan. Kompaniyaning asosiy g'oyalari va yangitdan faoliyatini tashkil etishdagi asosiy muammolardan biri ham moliyaviy resurslarni qaysi manbalar hisobiga shakllantirish va o'z vaqtida qaytarish hisoblanadi. Qolaversa, moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligiga ta'sir etuvchi tashqi omillarni prognoz qilishning murakkablashib borayotganligi, kompaniyalar oldida turgan muhim vazifalardan biri sifatida saqlanib qolmoqda [3]. Olimlar tomonidan berilgan tarifda kompaniya moliyaviy ta'minotidan samarali foydalanishda tashqi omillarni prognoz qilishni murakkabligi va mazkur jarayonda kapitaldan foydalanish yuqori rentabellikka olib kelish ustuvor vazifa sifatida belgilanishi qayd etilgan.

Kompaniyalar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy resurslarni samarali boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy resurslarni samarali boshqarishning birinchi qadamlaridan biri bu oldindan rejalashtirishdir. Bu aniq va real maqsadlarni belgilash, kerakli resurslarni aniqlash va faoliyat yo'nalishlariga doir xarajatlar va foydani baholashni anglatadi. Aynan baholash natijalaridan kelib chiqqan holda kompaniya istiqbolli strategiyalarini belgilaydi hamda kelgusidagi moliyaviy holatini aniqlash imkoniyati paydo bo'ladi [4]. Olimlar tomonidan berilgan tarifda, kompaniya moliyaviy resurslarini samarali boshqarish kompaniyaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash bilan birga uning uzoq muddatli strategiyalarini muvaffaqiyatli baholash imkonini berishligi qayd etilmoqda. Moliyaviy resurslarni boshqarish - bu kompaniya uzoq muddatli maqsadlariga erishish uchun moliyaviy resurslarni shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayoni. Bu esa kompaniya egalarining farovonligini maksimal darajada oshirish va kapitalning bozor qiymatini oshirish maqsadida moliyaviy faoliyat uchun zarur bo'lgan resurslar, kapital va pul oqimlarini shakllantirish jarayonlarini boshqarishni o'z ichiga oladi [5]. Demak, kompaniya moliyaviy ta'minot manbalari sifatida uning asosiy kapitali, jalb qilingan qarz kapitali kabi manbalari tushunilib, moliyaviy menejerlar tomonidan kompaniya ta'sischi va egalarining moliyaviy farovonligini oshirish bevosita kompaniya moliyaviy resurslarini samarali boshqarish jarayoni bilan bog'liq hisoblanadi.

Kompaniya rahbarlari uchun pul oqimi va aylanma mablag'larni boshqarish biznes o'sishi va zaruriy resurslarga ega bo'lishini ta'minlash uchun juda muhimdir. Moliyaviy

resurslarni samarali boshqarish kompaniya ijro organlari rahbarlariga operatsion xarajatlarni qoplash, strategik tashabbuslarga sarmoya kiritish va iqtisodiy o'sishdan foydalanish imkonini beradi [6]. Mazkur yondashuvda olimlar tomonidan moliyaviy resurslarni samarali boshqarish kompaniya ijro organlari rahbarlari va moliyaviy menejerlari oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo'lib, investitsion imkoniyatlarni yanada oshirish uchun asosiy manba sifatida qaralmoqda, degan g'oya ilgari surilmoqda.

Biznesni moliyalashtirish manbalarining moliyaviy oqibatlari moliyaviy bazani kengaytirish nuqtai nazaridan biznes uchun manbaning bozor qiymatini o'z ichiga oladi. Boshqa tomondan, biznesni moliyalashtirish manbasini nazorat qilishning susayishi ushbu manba egalarining biznes ulushlari ustidan nazoratini kamaytirishga olib keladi. Biznesni moliyalashtirishning qisqa muddatli/oraliq manbalarini olish osonroq va kredit mablag'lari bilan bog'liq risk ham pastroq hisoblanadi. Binobarin, bu manbalar nazorat mexanizmini kamaytirishga ega emas va moslashuvchanligi tufayli nisbatan past risk darajasiga ega [7]. Olimlar tomonidan mazkur yondashuvga tayanadigan bo'lsak, uzoq muddatli manbalarga nisbatan qisqa muddatli manbalarining risk darajasi past hisoblanadi. Qolaversa, moliyaviy ta'minot manbalaridan foydalanish bo'yicha qat'iy nazorat mexanizmini yo'lga qo'yilganligi kompaniya ta'sischilari yoki egalarining moliyaviy farovonligini me'yorda bo'lishligini ta'minlaydi.

Korxonaning moliyaviy resurslari o'z jamg'armalari, ishlab chiqarish faoliyatiga yo'naltirilgan resurslari va kredit mablag'lari hisobidan shakllanadi. Kompaniya yangi tashkil etilgan vaqtda, ular ustav kapitalining bir qismi ko'rinishida bo'ladi. Keyinchalik esa moliyalashtirishda mulkdor, kreditorlar va aktsiyadorlar ishtirok etadilar. Korxonaning moliyaviy resurslarini shakllantirish manbalari orasida sotishdan tushgan tushum muhim o'rinni egallaydi, bu sotilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymatini ifodalaydi. Korxonaning asosiy moliyaviy resurslariga esa sof foyda va amortizatsiya ajratmalari kiradi [8]. Mazkur bildirilgan fikrda, kompaniya moliyaviy ta'minot manbasini shakllantirishda o'z manbalari yuqori iqtisodiy samaradorlikka olib kelishligiga urg'u berish bilan bir qatorda, operatsion faoliyatni moliyalashtirishga yo'naltirilgan manbalar kompaniya faoliyatini moliyalashtirishda alohida o'rin egallashi qayd etilgan.

Moliyaviy resurslar - bu korxona egalari tomonidan to'plangan daromadlar, shuningdek, kredit shaklida tashqaridan olingan mablag'lardir. Shunday qilib, korxonaning moliyaviy resurslari o'z va qarz (kredit) mablag'laridan iborat. Shu bilan birga, joriy to'lov qobiliyatini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur tarifda e'tibor beradigan bo'lsak, yuqorida bildirilgan fikrlarga qo'shilgan holda kompaniya moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi asosiy omillardan biri, balki joriy to'lov qobiliyatini ta'minlashda alohida o'rin tutishi qayd etib o'tilmoqda.


Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy resurslarni samarali boshqarish masalalarini yoritishga qaratilgan mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Shuningdek, ilmiy xulosalarni asoslashda mantiqiy fikrlash, taqqoslash, umumlashtirish hamda tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Bugungi kunda yuqori sur'atlarda rivojlanayotgan mamlakatlarda olib borilayotgan amaliyotdan ma'lumki, kompaniyalarning moliyaviy menejerlari moliyaviy ta'minot va uni samarali boshqarish bilan bog'liq bo'lgan qarorlarni qabul qilishda investitsiya oqimini asosiy omil sifatida hisobga olish bilan bir qatorda, turli investorlar tomonidan kompaniyalarning investitsiya salohiyatini baholash, shuningdek, investitsiya jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan loyihalarni amalga oshirishda kompaniyaning kapital bahosi, ya'ni kompaniyalar moliyaviy ta'minotidan oqilona foydalanish masalasi zarurligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, kompaniyalarga kirib kelayotgan investitsiya oqimlarining ortib borishi natijasida, xususan kompaniyalarning moliyaviy ta'minot boshqaruvini samarali tashkil etishda, kapitalga ta'sir qiluvchi omillar sifatida xususiy va qarz kapitalining ta'siri darajasini aniqlash va shu bilan bir qatorda, moliyaviy aktivlarni baholash asosida kapitalning optimal tarkibini aniqlashning yangicha yondashuvini ishlab chiqish zaruriyatini namoyon etmoqda. Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy ta'minot manbalari va uning asosiy tarkibini quyidagicha aks ettirishimiz mumkin (1-rasm).



1-rasm. Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini moliyalashtirish manbalari¹

Mazkur mavzudagi ilmiy maqolani yozish davomida biz tomondan "Dori-darmon" aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy

¹ Muallif tomonidan tayyorlangan

resurslarining tarkibini ifoda etuvchi ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Tahlil jarayonida jamiyat moliyaviy resurslarining shakllanish manbalari, ularning aktivlar tarkibida joylashuvi hamda passivlar orqali moliyalashtirilish darajasi kompleks yondashuv asosida o'rganildi. O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, jamiyat moliyaviy resurslarining asosiy qismi uzoq muddatli aktivlar va joriy aktivlar o'rtasida qayta taqsimlanib borayotgan bo'lib, bu holat moliyaviy boshqaruv strategiyasida investitsion faollikning ortib borayotganidan dalolat beradi. Xususan, uzoq muddatli aktivlar tarkibida asosiy vositalar va uzoq muddatli investitsiyalarning barqaror o'sishi jamiyatning ishlab chiqarish va logistika infratuzilmasini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratayotganini ko'rsatadi. Avvalo, jamiyat aktivlari tarkibiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, uzoq muddatli aktivlar hajmi 2015 yildagi 110,08 mlrd so'mdan 2024 yilda 171,56 mlrd so'mga yetib, barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Bu holat jamiyatda ishlab chiqarish va infratuzilma salohiyatini kengaytirishga yo'naltirilgan investitsion siyosat olib borilayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, asosiy vositalar qiymatining 2015-2019 yillarda izchil oshib, 2024 yilda keskin 80,4 mlrd so'mga yetishi uzoq muddatli rivojlanish strategiyasining faollashganidan dalolat beradi (1-jadval). Shuningdek, joriy aktivlar tarkibida tovar-moddiy zaxiralar va debitorlik qarzlarning yuqori ulushi jamiyat aylanma mablag'larining sezilarli qismi muomalaga jalb etilganini anglatadi. Bu holat bir tomondan operatsion faoliyat uzluksizligini ta'minlasa, ikkinchi tomondan, moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, debitorlik qarzlarni optimal boshqarish va likvidlik darajasini muvozanatligini ta'minlash zaruratini yuzaga keltiradi. Passivlar tarkibiga nazar tashlaydigan bo'lsak, jamiyatning xususiy kapitali 2015-2017 yillarda barqaror o'sib, 2018 yilda pasaygan bo'lsada, keyingi yillarda esa qayta tiklanish tendensiyasini namoyon etganini ko'rish mumkin. Ta'qsimlanmagan foydaning ayrim yillarda manfiy qiymatga ega bo'lishi jamiyatda foydani qayta investitsiyalash imkoniyatlari cheklangan davrlar mavjud bo'lganini anglatadi. Shu bilan birga, rezerv kapitalining o'sishi moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga bo'lgan intilishdan dalolat beradi.

Majburiyatlar dinamikasi esa jamiyat faoliyatida qarz mablag'laridan faol foydalanilayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, 2022-2024 yillarda uzoq muddatli majburiyatlarning keskin oshishi jamiyat investitsion loyihalarni asosan tashqi moliyalashtirish manbalari hisobiga amalga oshirayotganini bildiradi. Bu holat ilmiy maqolada ko'rsatilgan moliyalashtirish manbalari

tarkibida qarz kapitalining ulushi ortib borishi bilan bog'liq risklarni ham yuzaga chiqaradi. Umuman olganda, moliyaviy resurslarning shakllanish manbalari tahlili shuni ko'rsatadiki, jamiyat faoliyatida xususiy kapitali va qarz mablag'lari o'rtasidagi nisbat yillar kesimida sezilarli darajada o'zgarib borgan. Ayrim davrlarda xususiy kapital ulushining qisqarishi va majburiyatlar hajmining oshishi moliyaviy risklar darajasi oshishiga olib kelishi mumkin bo'lgan holat sifatida baholanadi. Ayniqsa, uzoq muddatli majburiyatlarning keskin ortishi investitsion loyihalarni moliyalashtirishda tashqi manbalarga yuqori darajada tayanilayotganini ko'rsatadi. Bunda moliyaviy resurslarni samarali boshqarish nuqtayi nazaridan aktivlar va passivlar o'rtasidagi mutanosiblik muhim ahamiyat kasb etadi. Uzoq muddatli aktivlar asosan barqaror moliyalashtirish manbalari - xususiy kapital va uzoq muddatli majburiyatlar hisobiga qoplanishi kerak. Joriy aktivlarning esa qisqa muddatli majburiyatlar bilan ortiqcha darajada bog'lanib qolishi jamiyatning to'lov qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, "Dori-darmon" aksiyadorlik jamiyatida moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun kapital tuzilmasini optimallashtirish, o'z mablag'lari ulushini bosqichma-bosqich ko'paytirish hamda aylanma mablag'larni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Mazkur yo'nalishlar ilmiy maqolada ilgari surilgan aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy resurslarni samarali boshqarish konsepsiyasiga to'liq mos keladi.

Umuman olganda, amalga oshirilgan tahlil natijalari "Dori-darmon" aksiyadorlik jamiyatida moliyaviy resurslar tarkibini optimallashtirish va ularni boshqarish samaradorligini oshirish orqali jamiyatning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash mumkinligini ko'rsatadi hamda ushbu ilmiy tadqiqot natijalari amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi, deb o'ylaymiz.

Xulosa va takliflar

Xalqaro amaliyot tajribalaridan ma'lumki, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy resurslarni samarali boshqarishning asosiy shartlaridan biri aktivlar va ularni moliyalashtirish manbalari o'rtasida barqaror mutanosiblikni ta'minlashdan iborat. Rivojlangan mamlakatlar tajribasida uzoq muddatli aktivlar asosan xususiy kapital va uzoq muddatli majburiyatlar hisobiga moliyalashtiriladi, bu esa moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va investitsion risklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Shuning uchun, aksiyadorlik jamiyatlarida kapital tuzilmasini optimallashtirish moliyaviy strategiyaning ustuvor yo'nalishi bo'lishi lozim.

1-jadval

“Dori-darmon” aksiyadorlik jamiyati aktiv va passivlarining dinamikasi² (mlrd. so'm)

№	Ko'rsatkichlar	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.
1.	Uzoq muddatli aktivlar	110,08	123,2	136,6	149,8	149,53	161,6	154,26	153,44	147,82	171,56
2.	Asosiy vositalar	43,1	51,1	53,5	63,9	59,03	60,1	58,06	51,5	45,5	80,4
3.	Uzoq muddatli investitsiyalar	60,3	72,1	83,1	85,9	90,5	101,5	96,2	101,9	101,9	90,8
4.	Kapital qo'yilmalar	6,68	-	-	0,063	-	-	-	0,048	0,424	0,368
5.	Joriy aktivlar	124,6	129,3	262,2	175,05	94,1	190,2	166,4	181,7	292,9	267,6
6.	TMZ	52,9	45,2	82,1	42,5	23,5	112,02	47,8	39,5	57,07	56,0
7.	Debitorlik qarzlari	32,7	42,4	79,2	52,07	64,9	75,05	114,7	136,5	220,1	202,3
8.	Pul mablag'lari	31,3	32,2	0,451	26,3	0,252	1,5	2,3	0,058	1,156	3,7
9.	Jami aktiv	234,68	252,6	398,9	324,9	243,7	351,8	320,7	335,3	440,8	439,2
10.	Ustav kapitali	86,3	86,3	86,3	86,3	86,3	86,3	86,3	86,3	86,3	86,3
11.	Qo'shilgan kapital	0,0058	0,0058	0,0058	0,0058	0,0058	0,0058	0,0058	0,0058	0,0058	0,0058
12.	Rezerv kapitali	18,7	25,9	31,4	47,2	33,07	39,07	40,08	39,6	39,4	38,7
13.	Taqsimlanmagan foyda	25,3	39,7	34,2	-21,9	-56,4	-2,72	27,2	35,3	43,5	30,9
14.	Maqsadli tushumlari	17,9	0,039	0,039	0,039	0,039	0,039	0,039	0,039	-	-
15.	Jami xususiy kapital	148,3	152,05	152,1	111,6	62,9	122,7	153,7	161,3	169,3	156,02
16.	Uzoq muddatli majburiyatlar	-	-	-	52,0	150,0	150,0	100,0	62,9	221,07	228,3
17.	Qisqa muddatli (joriy) majburiyatlar	86,3	100,6	246,8	161,3	30,8	79,1	67,01	111,04	50,51	54,8
18.	Jami majburiyatlar	86,3	100,6	246,8	213,3	180,8	229,1	167,01	173,9	271,5	283,2
19.	Jami passiv	234,68	252,6	398,9	324,9	243,7	351,8	320,7	335,3	440,8	439,2

Korporativ boshqaruv amaliyotida moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi nafaqat moliyalashtirish manbalari, balki aylanma mablag'larni boshqarish tizimining rivojlanganligi bilan ham belgilanadi. Yetakchi kompaniyalar tajribasida debitorlik qarzlari, zaxiralar va pul oqimlarini faol boshqarish orqali likvidlik darajasi barqaror saqlanadi hamda operatsion faoliyat uzluksizligi ta'minlanadi. Shundan kelib chiqib, aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy moliyaviy rejalashtirish va nazorat mexanizmini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, “Dori-darmon” aksiyadorlik jamiyatida aktivlar hajmining barqaror o'sishi asosan uzoq muddatli aktivlar ulushining ortishi hisobiga ta'minlangan. Bu holat jamiyatning ishlab chiqarish va logistika salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsion siyosati mavjudligini tasdiqlaydi. Shuning uchun, uzoq muddatli aktivlarni moliyalashtirishda barqaror manbalardan foydalanish ulushini oshirish

² <https://new.openinfo.uz/uz/?tab=finance&page=1&org=%22DORI-DARMON%22&aksiyadorlik&kompaniyasi> - ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

tavsiya etiladi. Jamiyat joriy aktivlari tarkibida tovar-moddiy zaxiralar va debitorlik qarzlarning yuqori ulushi aylanma mablag'lar aylanish tezligining sekinlashishiga olib kelmoqda. Ushbu holat likvidlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shunga muvofiq, debitorlik qarzlarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish, to'lov intizomini mustahkamlash hamda zaxiralarni optimallashtirish zarur, deb hisoblaymiz.

Zamonaviy korporativ boshqaruv prinsiplariga muvofiq, moliyaviy resurslarni samarali boshqarish tizimi risklarni boshqarish va shaffof korporativ boshqaruv mexanizmi bilan uzviy bog'liqdir. Moliyaviy qarorlar qabul qilishda risklarni baholash, kapital qiymatini hisobga olish hamda tomonlar manfaatlarini muvozanatligini ta'minlash kompaniya bozor qiymatini oshirishga xizmat qiladi. Shuning uchun, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy resurslarni boshqarishda xalqaro standartlarga mos korporativ boshqaruv va risk-menejment tizimlarini takomillashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» Farmoni.
2. Financial resources: what are they and how are they managed? - <https://online.york.ac.uk/financial-resources-what-are-they-and-how-are-they-managed/>
3. Owusu, J., Owusu Ansah, W., Djan, K. O., Anin, E. K., & Taghizadeh-Hesary, F. Impact of financial resource building effort on financial resource availability among small and medium enterprises. *Cogent Business & Management*, 2021, 8(1). <https://doi.org/10.1080/23311975.2021.1920676>
4. Hui Hu, Shuaizhou Xiong, Zeyu Wang, Zishuo Wang, Xiang Zhou, Green financial regulation and shale gas resources management, *Resources Policy*, Volume 85, Part B, 2023.
5. Mingqi Zhu, Validating resources curse hypothesis in US: Exploring the relevancy of financial market risk and technology innovation, *Resources Policy*, Volume 84, 2023, 103769, ISSN 0301-4207.
6. Palanisamy Manigandan, Md Shabbir Alam, Muntasir Murshed, Ilhan Ozturk, Sumeyya Altuntas, Mohammad Mahtab Alam, Promoting sustainable economic growth through natural resources management, green innovations, environmental policy deployment, and financial development: Fresh evidence from India, *Resources Policy*, Volume 90, 2024.

7. Ching-Yuan Hsiao, Yung-Ming Shiu, Group firms' access to internal capital markets: The contingent roles of group resources and affiliates' financial weakness, *Economic Modelling*, Volume 96, 2021, Pages 135-156.

8. Касьянов С. Финансовые ресурсы предприятия: что входит и как управлять//Известия Юго-Западного государственного университета. Серия: Экономика. Социология. Менеджмент. 2023. Т. 13, No 3. С. 165–177.

9. Остапенко Л. М. Эволюция понятия «финансовые ресурсы» и современные подходы к определению//Вестник современной науки. - 2018. – № 1. – С. 101–104.

10. Коляда Н.Я. Рол SWOT и SNW-анализов в процессе стратегического управления компанией//National Science № 5, 2023 г.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

